VOLEYBOL O‘YINLARI MISOLIDA TALABALARDA JAMOA BILAN SAMARALI ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Xakimov Kobul Maxamadovich
Farg‘ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat va sport faoliyati fakulteti Jismoniy tarbiya va sport o‘yinlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada voleybol o‘yinlari misolida talabalarda jamoa bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari va metodik yondashuvlari yoritiladi. Voleybolga xos to‘pni qabul qilish, uzatish, hujum uyushtirish, to‘siq qo‘yish va himoyalanish harakatlari orqali talabalarning o‘zaro muloqot, hamkorlik, vazifalarni taqsimlash hamda birgalikda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Juftlikdagi va kichik guruhlardagi mashqlar, vaziyatli topshiriqlar hamda o‘quv o‘yinlari asosida jamoaviy harakatlarni muvofiqlashtirish usullari bayon etiladi. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘zaro ishonch, sheriklarini qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy mas’uliyat va umumiy maqsadga intilishni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Talabalarning jamoaviy faoliyatini baholashda samarali axborot almashish, o‘z vazifasini bajarish, sheriklariga yordam berish va o‘yin vaziyatlariga mos harakat qilish mezonlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: voleybol, talabalar, jamoa bilan ishlash, hamkorlik ko‘nikmalari, jamoaviy harakatlar, samarali muloqot, o‘zaro ishonch, mas’uliyat, vaziyatli mashqlar, o‘quv o‘yinlari, birgalikda qaror qabul qilish, jismoniy tarbiya.

Kirish. Oliy ta’lim bosqichida talabalarni jismoniy tarbiya o‘quv predmeti asosida mustaqil ishlashga, hamkorlikda faol ishtirok etib, jamoada muvaffaqiyat qozona olish kompetensiyalarini shakllantirish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Zero, talabalarning ma’rifatli, yetuk va barkamol shaxs sifatida kamol topishi, zamonaviy jamiyat rivojiga mos bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi ta’lim jarayonining mazmuniy asosini tashkil etadi. Ayniqsa, nomutaxassis yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarda jismoniy tarbiya, shu jumladan jamoaviy sport turlari orqali shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, jamoa bilan samarali muloqotga kirisha olish va o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilay olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Dolzarbligi. Dunyo sportida hamkorlikda ishlash, birgalikda g‘alaba qozonish bo‘yicha ko‘plab yondashuvlar amalda qo‘llanadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, erkaklar va ayollar sportida jamoa bilan ishlashda ko‘plab muammolar, har bir ishtirokchining birinchi bo‘lish ishtiyoqi boshqalar bilan hisoblashmaslik, jamoani hurmat qilmaslik oqibatida muvaffaqiyatsizliklarga uchrash holatlari ko‘p kuzatiladi. Bunda muayyan sport turi bilan shug‘ullanuvchi xalqning milliy mentaliteti ham katta rol o‘ynaydi. Xalqaro jismoniy tarbiya o‘qitish metodikasida har bir sportchini jismoniy tayyorlash bilan birga bir paytning o‘zida ruhiy jihatdan ham tayyor holga keltirish bo‘yicha ko‘plab yondashuvlar qo‘llanadi [1;2].

Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari asosida talabalarda voleybol o‘yinlarda hamkorlikda ishlash orqali muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmasini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jahon miqyosida sport va jismoniy tarbiya pedagogikasiga oid tadqiqotlar shaxsning ijtimoiy-psixologik va axloqiy rivojlanishini, pedagogik hamkorlikni va interfaol o‘qitish texnologiyalarini joriy etishni asosiy vazifa qilib olgan. Xususan, M.Siedentopning Sport Education Modelsi sport o‘yinlarini o‘quv jarayonini haqiqiy sport mavsumiga o‘xshatib tashkil etish (jamoalar, rollar, musobaqalar) orqali yetakchilik, jamoaviy hamkorlik, ijtimoiy mas’uliyat va sog‘lom raqobatni shakllantirishga qaratilgan. B.Dyson va A.Casey bu modelning amaliy tatbiqini chuqurlashtirib, unda hamkorlikda o‘qitish, refleksiya va jamoaviy tahlil vositalarini integratsiya qilish tajribalarini bayon etishgan. Shuningdek, A.Hellisonning Personal and Social Responsibility Modeli sport faoliyatini shaxsning axloqiy

qadriyatlari, o‘zini boshqarishi va boshqalarga yordam berish mas’uliyatini shakllantirish platformasi sifatida ko‘radi. Bundan tashqari, voleybol va jamoaviy o‘yinlar kontekstida ijtimoiy-psixologik ta’sir, liderlik va kommunikativ refleksiya jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan xorijiy tadqiqotchilar: M.A.Adnan, R.V.Vaynz, E.I.Gureeva, P.H.Vayt, Z.R.Mirzoyev, M.S.Mesz kabilar voleybolning talabalarda mustaqil fikrlash, jamoaviy qaror qabul qilish va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi rolini ilmiy asoslab bergan. Bu model sportni faqat natija emas, balki ijtimoiy ong va tarbiyani rivojlantiruvchi jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur yo‘nalishda xorijiy olimlar M.A.Adnan, R.V.Vaynz, E.I.Gureyeva, P.H.Vayt va Z.R.Mirzoyevlarning ilmiy ishlarida voleybol o‘yinining ijtimoiy-psixologik ta’siri, o‘zaro hamkorlik va kommunikativ refleksiya jarayonlari tahlil qilinga. Ularning izlanishlari natijasida voleybol o‘yinini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarda mustaqil fikrlash, liderlik, jamoaviy qaror qabul qilish va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishi isbotlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Tadqiqotimiz mazmuni ham aynan shu jarayonni ilmiy asosda o‘rganish, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida jamoaviylik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tajriba-sinov ishlari o‘quv jarayonining o‘ziga xos davriyligi va fan dasturlarining tuzilishidan kelib chiqib, bir necha izchil bosqichlarga ajratildi. Ushbu bosqichlar uchta, tashkiliy, shakllantiruvchi (2021-2022 yy.), asosiy eksperimental (2022-2023 yy.), yakuniy ta’kidlovchi (2023-2024 yy.) bosqichlardan iborat bo‘lib har bir bosqichning vazifalari, amalga oshirish mexanizmlari va kutilgan natijalari aniq belgilab olindi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida Farg‘ona davlat universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining jami 480 nafar talabasi va 7 nafar professor-o‘qituvchisi so‘rovnoma va kuzatuv jarayonlarida ishtirok etdi. Mazkur respondentlar orasidan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun 241 nafar talaba tajriba guruhi va 239 nafar talaba nazorat guruhi sifatida saralab olindi. Ushbu tajriba jarayoni tanlangan metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash, talabalarda jamoaviy kompetensiyalarni shakllanish dinamikasini baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon berdi.

1-jadval

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida voleybol o‘yinlari orqali hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlash bo‘yicha asosiy tajriba bosqichining boshida o‘tkazilgan test natijalari (2021–2022 o‘quv yili)

Kriteriylar	Darajalar	Guruhlar	Oliy ta’lim muassasalari							
			ToshDO‘TAU		FarDU		QarDU		Jami	
		Tajriba	28		28		25		81	
		Nazorat	27		27		25		79	
Motivatsion	yuqori	Tajriba	3	10,7%	2	7,1%	3	12,0%	8	9,9%
		Nazorat	3	11,1%	3	11,1%	2	8,0%	8	10,1%
	o‘rta	Tajriba	10	35,7%	13	46,4%	9	36,0%	32	39,5%
		Nazorat	9	33,3%	11	40,7%	11	44,0%	31	39,2%
	quyi	Tajriba	15	53,6%	13	46,4%	13	52,0%	41	50,6%
		Nazorat	15	55,6%	13	48,1%	12	48,0%	40	50,6%
Kogniti	yuqori	Tajriba	2	7,1%	3	10,7%	2	8,0%	7	8,6%
		Nazorat	3	11,1%	2	7,4%	3	12,0%	8	10,1%

	o‘rta	Tajriba	9	32,1%	10	35,7%	10	40,0%	29	35,8%
		Nazorat	7	25,9%	11	40,7%	8	32,0%	26	32,9%
	quyi	Tajriba	17	60,7%	15	53,6%	13	52,0%	45	55,6%
		Nazorat	17	63,0%	14	51,9%	14	56,0%	45	57,0%
Refleksiv	yuqori	Tajriba	2	7,1%	3	10,7%	2	8,0%	7	8,6%
		Nazorat	3	11,1%	2	7,4%	2	8,0%	7	8,9%
	o‘rta	Tajriba	9	32,1%	10	35,7%	10	40,0%	29	35,8%
		Nazorat	7	25,9%	11	40,7%	10	40,0%	28	35,4%
	quyi	Tajriba	14	60,7%	15	53,6%	13	52,0%	45	55,6%
		Nazorat	15	63,0%	14	51,9%	13	52,0%	44	55,7%

1-jadvalda ko‘rinib turganidek, tajriba-sinov ishlarining asosiy eksperimental bosqichi boshida tajriba va nazorat guruhlarimizning barcha mezonlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari bir-biriga juda yaqin. Bundan xulosa shuki, sinov ishlarini olib borish uchun guruhlar to‘g‘ri tanlangan. Buni diagrammalarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari matematik-statistik metodlar asosida chuqur tahlil qilindi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida voleybol o‘yinlaridan foydalanish talabalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Voleybolga qiziqishni oshirish hamda muntazam musobaqalar tashkil etish orqali talabalar o‘rtasida hamkorlik, kommunikativlik va ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Salamov R.S. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” Darslik II-jild. ITA-PRESS. 2014. -272 b.;
2. Matkarimov R.M. Og‘ir atletika nazariyasi va uslubiyati darslik Тошкент, 2015. 198 с.
3. Умаров М.Н., Эштаев А.К. Программные требования гимнастики и технология их распределения по годам обучения. Методическое пособие. Т.: 2018. -124 с.;
4. Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. //Darslik. T.: ITA PRESS. -2021. 378 b.;